

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:

Shartnoma. “Fuqarolik shartnoma”.

2. Loyihaning mazmuni:

“Qarshi shahar maktabgacha ta’lim bo‘limi (buyurtmachi) tasarrufidagi 2-sonli DMTT, 9-sonli DMTT, 13-DMTT, 22-sonli DMTT, 28-sonli DMTT, 32-sonli DMTT, 33-sonli DMTT, 37-sonli DMTT, 45-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ro‘yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilarni amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bir kunda 3 (uch) mahal (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik), haftada 5 (besh) kun “Vaqt Zavqi” MCHJ (autsorser) tomonidan autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish to‘g‘risida 3-sonli shartnoma”.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Qarshi shahar maktabgacha ta’lim bo‘limi mudiri B.Muminov tomonidan 2022-yil 06-yanvar kuni taqdim qilingan.

Loyiha amaldagi O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021-yildagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 407-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinnbosari (B.Musayev)ning 30.09.2021-yildagi 07/1-2472-sonli xati (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 28.09.2021 yildagi 01-02/6-261-sonli murojaatiga rozilik berish, jumladan tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlari va autsorsing xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga qo‘srimcha kelishuv imzolash; Moliya vazirligi G‘aznachiligi tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlari va autsorsing xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga qo‘srimcha kelishuvlarni o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minalash, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tajriba sinov tariqasida ishlab kelgan tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalarni istisno tariqasida 2022-yil 1-fevralga qadar uzaytirish hamda uzaytirilgan shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va to‘lovlarni amalga oshirishga rozilik berish)ga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar yuridik xizmat
ko‘rsatish markazi
bosh yuristkonsulti
2022-yil 08-yanvar**



N.S.Qilichev